

SHAXSLARDA TAVAKKALCHILIK BILAN BOG‘LIQ VIRTUAL O‘YINLARGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ADPI pedagogika va psixologiya kafedrası
o‘qituvchisi SH.R. Abduraximova
Mirzayeva Durdonaxon Ilhomjon qizi
ADPI filologiya fakulteti O‘zbek tili
va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotasiya; ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar o‘rtasida tobora ommalashib borayotgan oyinlardan biri bo‘lgan virtual o‘yinlar va ularga tobeklik, shaxslarda tavakkalchilik bilan bog‘liq virtual o‘yinlarga moyillikni, yoshlar ongiga ta’sirini psixologik xususiyatlari kuchli depressiya, xulq-atvorning yomonligi, diqqatning pasayishi, aqliy jihatdan o‘ylamay, fikrlamay qolishi, muloqotning yo‘qligi, kuchli stress, irodaning sustligi borasida fikrlar bildirilgan

Kalit so‘zlar: virtual o‘yinlar, virtual olam, global integratsiya jarayoni, internet, depressiya, diqqat, stress

Bugungi kunda shaxslarda tavakkalchilik bilan bog‘liq virtual o‘yinlarga moyilligi tez suratlarda o‘sib bormoqda.

Buning asosiy sababi ham virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri hisoblanadi. Biz xohlaymizmi yoki xohlamaymizmi axborot texnologiyalaridan voz kecha olmaymiz va buning imkoni ham yo‘q. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib, yuksalib yangiliklar olamiga aylanib bormoqda. XXI asrda dunyoda mafkuraviy manzarasi tubdan o‘zgarib ketdi, global integratsiya jarayonlarining jadallashib, ommaviy bo‘lib yangicha tafakkur uslubini yaratib bermoqda.

Virtual o‘yinlar- butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar muntazam ravishda o‘ynaydigan bugungi jamiyatda tobora ommalashib borayotgan o‘yin turi tushuniladi.

Hozirgi kunga kelib, juda ko‘p yoshlarda tavakkalchilik bilan turli xil o‘yinlar o‘ynab ko‘radi. Salbiy ko‘rinishdagi juda ham qo‘rqinchli bo‘lgan kinolar tomosha qiladi. Bu albatta, bolaning ongiga ta’sir o‘tkazmasdan qo‘ymaydi. Keyin esa o‘zlari bilmagan holatda virtual o‘yinlarga kirib o‘ynashni boshlaydilar.

Dunyoda bugungi kunga kelib, yer sharida yashovchi 58,8% aholi Internet tarmog‘idan foydalansa, buning qanchadir qismi ham virtual o‘yinlarni o‘ynash uchun kiradi. Bu achinarli holat hisoblanadi. Biz bugungi kunda beshinchi olamimizni ham yaratib ulgurdik, bu tom ma’noda virtual olam deganidir. Biz dastlab,

O‘simliklar olami

Hayvonot olami

Inson olami

Texnika olami

Virtual olami- bu hozirda keng tarqalgan virtual olamda, virtual o‘yinlar o‘zining juda katta salbiy tomonlarini o‘tkizib bormoqda. Shu sababli ham, virtual o‘yinlarga moyilligi yuqori bo‘lganligi uchun bolalarda, yoshlarda psixologik xususiyatlari anchagina yomon oqibatlariga olib kelmoqda. Chunki, bunday holatlarda kuchli depressiya, xulq-atvorning yomonligi, diqqatning pasayishi, aqliy jihatdan o‘ylamay, fikrlamay qolishi, muloqotning yo‘qligi, kuchli stress, irodaning sustligi, xattoki, “Abuliya”-(nerv sistemasining kasalligi, irodaning haddan tashqari sustlashishi) kabi holatlarining ham yuzaga kelishi va xarakter aksentuatsiyasini buzilishi “introvert”-(ichki dunyosiga yo‘nalgan yopiq odamlar), “ambrovert”-(boshqarib bo‘lmaydigan oraliq tip)dagi insonlarga aylanib qolishi ham hech gap emas, aslida.

Internet- bu davr talabidir. Hozirgi kunda internet hayotimizning bir bo‘lagiga aylangan. Internet- bizlar uchun juda ham yengiliklar va qulayliklarga egadir. Uzog‘imizni bizga yaqin qiladi va o‘zimiz uchun kerakli barcha ma’lumotlarni internet orqali izlab topmoqdamiz. Internetdan qanday foydalanish o‘zimizning qo‘limizda. Har bir narsaning o‘ziga yarasha foydasi bo‘lgani kabi, shunga yarasha zarari ham bor. Hozirda internetdan hamma ham yaxshi maqsadda foydalangani yo‘q. Internetdagi virtual video o‘yinlar yoshlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ularning ma’naviy ongiga va ruhiyatiga ta’sir o‘tkazadi. Bu virtual o‘yinlarni Amerika tibbiyot uyushmasi video o‘yinlarga berilib ketishni rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish niyyatida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko‘ngilxushlik izlaydiganlarga ham tegishli hisoblanadi. Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko‘p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga asirlik xastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar mavjud.

Kompyuterda soatlab, kunlab o‘tirib, turli virtual mukofotlarni, yutuqlarni “qo‘lga kiritgan” kishi uchun ular chinakamiga qimmatli ma’no kasb eta boshlaydi. Bunday ball va yutuqlar “sodiq” o‘yinchilar orasida sotiladi, xarid ham qilinadi. Bunday ishga esa pullarini ayamasdan sarflashadi. Masalan, “Rgojest Yentropia” o‘yiniga mukkasidan ketgan avstraliyalik Devid Stor ismli talaba 35 ming AQSH dollari evaziga virtual orol sotib oladi. Bu orolda eski qal’a, bir qancha cho‘milish va turli maxluqlarni ovlash uchun maxsus joylar bor bo‘ladi. Lekin bu joylar faqat tasavvurda, kompyuter ekranidagina xolos edi.

“Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, Illat izlaganga illatdir dunyo” – hozir virtual o‘yinlar keltirib chiqarayotgan illatlar, yoshlarni halokatga giriftor etayotgani va nobud qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda axborot vositalaridan ko‘p foydalanish holatlarida yoshlarga nima demoqchiman, hamma narsa ham “me’yor” degan tushuncha bo‘ladi. Men bitta narsaga ba’zida o‘ylanib qolaman, bugungi kundagi yoshlarni ongi, aqli shunchalik pastmi..? Hayotining teng yarmidan ko‘p qismini virtual o‘yinlarga sarflasa, undan ko‘ra “kitob” mutolaa qilgani yaxshi emasmi. Ijtimoiy tarmoqlardagi virtual o‘yinlar insonlarni shu qadar o‘ziga jalb qiladiki, unga o‘zi qanday qilib kirib qolganini bilmay qolishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Ablazov. Media savodxonlik va axborot madaniyati fanidan o‘quv-uslubiy majmua. And.2023 y
2. A.I. Xaydarov. N.I. Xalilova Umumiy psixologiya darslik. T. 2009.
3. E. G‘oziev- Tafakkur psixologiyasi T.1990.